

МАКТАВГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИНИ БОШҚАРИШ.

PRESCHOOL EDUCATION MANAGEMENT.

УПРАВЛЕНИЕ ДОШКОЛЬНЫМ ОБРАЗОВАНИЕМ.

Normurodova Malohat Ilhom qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi magistranti

To'lishova Orzigel

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi bilan kelishuv bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining hududiy bo'linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan direktor rahbarlik qiladi

Annotation: The state organization of preschool education is headed by a director elected by the Supervisory Board of the organization of preschool education from among the candidates nominated by the territorial divisions of the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan in agreement with the Ministry of Preschool Education of the Republic of Uzbekistan. The Republic of Uzbekistan

Аннотация: Государственную организацию дошкольного образования возглавляет директор, избираемый Наблюдательным советом организации дошкольного образования из числа кандидатов, выдвинутых территориальными подразделениями Министерства дошкольного образования Республики Узбекистан по согласованию с Министерством дошкольного образования Республики Узбекистан. Республика Узбекистан

Kalit so'zlar: nizom, kuzatuv kengashi, nodavlat, direktor, muassis, davlat, maktabgacha ta'lim tashkilot, boshqaruv organlar, pedagogik kengash.

Keywords: charter, supervisory board, non-governmental, director, founder, state, preschool organization, governing bodies, pedagogical council.

Ключевые слова: устав, наблюдательный совет, общественная организация, директор, учредитель, государство, дошкольная организация, органы управления, педагогический совет.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 30-sentabrdagi PQ3955-son qaroriga muvofiq, shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish,

sog‘lom, faol, to‘laqonli, jamiyatga moslashgan bola shaxsini shakllantirish, o‘sishida turli nuqsonlari bo‘lgan bolalarni, shuningdek reabilitatsiya qilish va sog‘lomlashtirishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash va integratsiya qilish uchun qulay muhit yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi va 1- ilova Umumiy turdag'i davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida nizom ishlab chiqildi. Nizomning 13-moddasida maktabgacha ta’lim tashkilotini boshqarish bo‘yicha Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining tashkilotni boshqarish bo‘yicha bandlari belgilab berilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti qonunchilikda, ushbu Nizomda, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkiloti ustavida nazarda tutilgan tartibda boshqariladi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotiga O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi bilan kelishuv bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining hududiy bo‘linmalari tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta’lim tashkiloti Kuzatuv kengashi tomonidan tanlanadigan direktor rahbarlik qiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining ustaviga muvofiq lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan direktor nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotining rahbari hisoblanadi.

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatiga direktor joriy rahbarlik qiladi hamda davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining Kuzatuv kengashi va muassisasi oldida hisob beradi.

Nodavlat maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatiga direktor joriy rahbarlik qiladi va muassisasi oldida hisob beradi.

Quyidagilar davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining boshqaruvi organlari hisoblanadi:

Pedagogik kengash;

(65-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi 510-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 09/21/510/0784-son)

Kuzatuv kengashi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining Pedagogik kengash:

(66-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-avgustdagi 510-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.08.2021-y., 09/21/510/0784-son) maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi; maktabgacha ta’lim tashkilotining ish rejasini va pedagog xodimlarining pedagogik yuklamasini belgilaydi; maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholaydi; maktabgacha ta’lim tashkilotining bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorligi tartibini belgilaydi; maktabgacha ta’lim tashkiloti

pedagog xodimlari malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg‘or pedagogik tajribani joriy etish masalalarini muhokama etadi; maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarini ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish masalalarini ko‘rib chiqadi; maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlar hisobotlarini eshitadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining Pedagogik kengash qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

(66-bandning to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotida bolani tarbiyalash, shakllantirish va o‘qitishda ko‘maklashish maqsadida Kuzatuv kengashi tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari orasidan tuziladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining Kuzatuv kengashi:

maktabgacha ta’lim tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi;

maktabgacha ta’limning tuman (shahar) bo‘limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarini saylaydi, shuningdek, uni egallab turgan lavozimidan ozod qilish bo‘yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi; maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo‘jalik holati, daromadlar va xarajatlar, budget, budgetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag‘lardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotlarini vaqtiga bilan eshitadi; maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so‘rovlari o‘tkazadi; tuman (shahar) maktabgacha ta’lim bo‘limlariga maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarini rag‘batlantirish to‘g‘risida takliflar kiritadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining Kuzatuv kengashi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham bajarishi mumkin.

(67-bandning yettinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son)

Maktabgacha ta’lim tashkiloti Kuzatuv kengashining faoliyatini tashkil etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbarlarining huquqlari va majburiyatlarini qonunchilikda, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

(68-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-apreldagi 153-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y.,

09/22/153/0266-son)

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining lavozimiga qo‘yiladigan malaka talablari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi.

Nizomning 13-moddasda berilgan bandlar Maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarining ishni boshqarish tizimini belgilab beradi va shu bilan birga rahbarlik imidjini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining Qarori Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
2. Umumiy turdag'i davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydag'i 391-son qaroriga 1-ILOVA